

Date: 19<sup>th</sup> December-2025

**KICHIK YOSHLI BOLALARNING OLAMNI IDROK ETISHLARIGA KREATIV  
YONDASHUV**

**Sobirova Fotimaxon Baxodir qizi**

FarDU Ta'lim tarbiya nazariyasi va metodikasi mutaxassisligi

2-kurs magistranti

**Ortiqova Zulfiya Nurmaxamatovna**

pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori

**Annotatsiya:** Ushbu ilmiy maqolada kichik yoshdagi bolalarni olamni idrok etishlarida kreativ yondashuvning ahamiyati haqida so'z boradi.

**Kalit so'zlar:** Idrok, olam, psixologik, bolalar, maktab, atrof-uhit, shaxsiy, intellektual.

Idrok — tirik organizmning ma'lumotlarni qabul qilib, qayta ishlash jarayoni; organizmga obyektiv reallikni aks ettirish va tashqi olamdagi yangidan-yangi vaziyatlarni baholab, shunga yarasha harakat qilish imkonini beradi. Idrok ongning miyaning ijodiy jarayonidir. Bolaning o'sishi, uning psixikasi va ongining taraqqiyoti, jamiyat a'zosi sifatida voyaga yetishi muayyan qonuniyatlarga bo'ysunadi. Kichik maktab yoshi davri 1-4 sinf o'quvchilarining yosh oralig'ini o'z ichiga oladi. Bu davrda bola psixikasida muayyan o'zgarishlar sodir bo'lishini kuzatish mumkin.

Bolani birinchi bor maktab ostonasiga qadam qo'yishi bilan unda bir qator psixologik qiyinchiliklar yuzaga kela boshlaydi. Kichik maktab davrida bolaning birinchi bor maktab ostonasiga qadam qo'yishi unda o'quv faoliyatining boshlanishi hisoblanadi. Bu davrni bola uchun qiziqarli, ta'sirchan o'tkazish talab etiladi. O'quv faoliyati bolaning bilish jarayonlarining ixtiyoriy va barqaror xususiyatlarini, aql sifatlari va fikr yuritish jarayonlarining rivojlanishida psixologik qiyinchiliklarning paydo bo'lishiga sabab bo'ladi. Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning barcha o'qish faoliyati qat'iy ravishda maqsadga muvofiqlashtirilgandir.

Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning bilim jarayonlari va ularning faoliyatida bir qator o'zgarishlarni kuzatish mumkin: Jumladan, bola idrokining o'tkirligi, sofligi bilan farq qiladi. Kichik maktab yoshidagi o'quvchilar diqqatining asosiy xususiyati sifatida esa uning ixtiyoriy zaifligini keltirish mumkin. Shuningdek, aynan shu yoshda diqqatni iroda kuchi bilan moslash va uni boshqarish imkoniyati cheklangan bo'ladi. Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda xotira jarayoni haqida so'z yuritadigan bo'lsak, bu davrda so'z mantiq xotirasining va ma'nosiga tushunib esda olib qolishning roli va uning salmog'i kuchayadi, tartibga solish imkoniyatlariga bo'ladi. Birinchi signal sistemasi faoliyatining nisbatan ustunligi tufayli kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda so'z mantiq xotirasi deb atalgan xotiraga qaraganda ko'rgazmali-obrazli xotira ko'proq rivojlangan bo'ladi. Kichik maktab yoshidagi o'quvchilar qoida va tushuntirishlarga qaraganda konkret ma'lumotlarni, voqeliklarni, qiyofalarni narsalarni va faktlarni yaxshi tez esda olib qoladilar va xotiralarida mustahkam saqlaydilar. Xayol bilish faoliyatida esa o'quvchining xayoli uning



Date: 19<sup>th</sup> December-2025

o'quv faoliyatining ta'siri va talablari bilan tarkib topadi. SHuning bilan bir qatorda bevosita taassurotlar (muzeylarga sayohat, kartinalarni ko'rish, ekskursiyalarga borish, maktab yer uchastkasida ishlash va boshqalar) ham xayolni rivojlantiradi.

Kichik yoshli bolalar atrof-muhitni idrok etishda o'ziga xos psixologik va intellektual xususiyatlarga ega bo'lib, ularning dunyoni anglash jarayoni bevosita hissiy tajriba, tasavvur va faol harakatlar orqali shakllanadi. Shu sababli bolalar tafakkurini rivojlantirishda kreativ yondashuv muhim o'rin tutadi. Kreativ yondashuv bolaga tayyor bilimlarni berishdan ko'ra, ularni mustaqil izlanishga, fikrlashga va kashf etishga undaydi.

Psixologiyada muammolarni mustaqil rivojlanishiga hal eta oladigan, intellektual va shaxsiy xususiyatlar tizimi, o'ziga xos g'oyalar avlodi kreativlik tushunchasi bilan belgilanadi. Ijodiy qobiliyatlar o'quv jarayonida alohida rivojlanish ob'ekti bo'lishiga karamasdan, psixologiya fanida o'quv jarayonida kreativlikning rivojlanishi juda kam o'rganilgan, kreativlik rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillar yetarlicha o'rganilmagan. Eksperimental tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, shaxsga bog'lik xolda intellektual funksiyalarni rivojlantirishga qaratilgan mashqlar kreativlikni shakllantirishga o'z xissasini qo'shadi. SHu munosabat bilan kreativlikni shakllantirishga kompleks yondashuvlar zarur. Kreativlik, ijodiy jarayonlar insonlarda juda erta bolalik davrlaridan boshlab namoyon bo'ladi. Rivojlanish psixologiyasi va pedagogik psixologiyaning muhim sohalaridan biri bu bolalarda kreativlik xususiyatlarini rivojlantirish va uni bolaning umumiy rivojlanishi uchun ahamiyatini tadqiq etish xisoblanadi. Biz bolalardagi ijodiy jarayonlarni ularning o'yinida kuzatishimiz mumkin. O'yin faoliyati jarayonida bola tayoq minib, o'zini ot minib yurgandek his qiladi. Kichkina qiz qo'g'irchoq bilan o'ynab, uning onasi ekanligini tasavvur qiladi. O'yin ichida bola qaroqchi, askar yoki dengizchi bo'ladi, bu jarayonlarning hammasi eng xaqiqiy, chinakam kreativlikning namunasi. Bolalar o'yin orqali kattalarga taqlid qiladi. Lekin bolalar o'yinlari - bu shunchaki takrorlash emas, ular kattalarning nima qilayotganini ko'radi va eshitadi, ammo bu harakatlarni o'z taassurotlaridan kelib chiqib ijodiy elementlar bilan boyitadilar.

Kichik maktab yoshidagi o'quvchilar tafakkuri ta'lim jarayonida juda katta o'zgarishlarga uchraydi. Mashhur psixolog L.S.Vigotskiy to'g'ri ko'rsatib o'tganidek, idrok va xotira maktab ta'limi boshlanishi oldidan anchagina taraqqiyot yo'lini bosib o'tgan bo'ladi, kichik maktab yoshidagi davrda esa intellekt (aql) jadal taraqqiy etadi. Tafakkurning rivojlanishi idrok va xotirani sifat jihatdan qayta o'zgarishga, ularni ixtiyoriy va boshqariladigan jarayonga aylanishga olib keladi. Vigotskiyning ko'rsatishicha, maktab yoshiga bola idrok va xotira funksiyasiga nisbatan kuchsiz intellekt funksiyasi bilan qadam qo'yadi. Biroq intellekt shunday rivojlanadiki, na xotira va na idrok bunday rivojlanishni o'z boshidan kechirmaydi. Bola xususan 7 - 8 yoshlik davrida konkret narsa va hodisalarning ko'rgazmali xususiyatlari va sifatlariga asoslanib, odatda konkret kategoriyalar bilan fikr yuritadi.

Bolalarning olamni idrok etishi asosan o'yin, tasviriy faoliyat, ertak va musiqiy mashg'ulotlar orqali amalga oshadi. Kreativ yondashuv ushbu faoliyat turlarini mazmunan boyitib, bolaning fantaziyasi va tasavvur doirasini kengaytiradi. Masalan, oddiy



Date: 19<sup>th</sup>December-2025

buyumlarni noodatiy tarzda qo'llash, ranglar bilan tajriba o'tkazish yoki ertak qahramonlari orqali hayotiy holatlarni anglatish bolaning mantiqiy va obrazli tafakkurini rivojlantiradi.

Shuningdek, kreativ muhit bolada erkin fikrlash, o'z his-tuyg'ularini ifodalash va mustaqil qaror qabul qilish ko'nikmalarini shakllantiradi. Bunday muhitda bola xato qilishdan qo'rqmaydi, aksincha, har bir xato yangi tajriba sifatida qabul qilinadi. Bu esa bolaning o'ziga bo'lgan ishonchini oshirib, ijtimoiy moslashuv jarayonini yengillashtiradi.

Kichik yoshdagi bolalar uchun kreativ yondashuvning yana bir muhim jihati shundaki, u bilish jarayonini qiziqarli va tabiiy holga keltiradi. Bola bilimni majburiyat sifatida emas, balki o'yin va ijod jarayonida o'zlashtiradi. Natijada bilimlar mustahkam, uzoq muddatli va amaliy ahamiyatga ega bo'ladi.

Xulosa qilib aytganda, kichik yoshli bolalarning olamni idrok etish jarayonida kreativ yondashuv ularning aqliy, hissiy va ijtimoiy rivojlanishini ta'minlovchi muhim omil hisoblanadi. Bunday yondashuv orqali bolalarda mustaqil fikrlash, ijodkorlik va atrof-muhitga ongli munosabat shakllanadi, bu esa kelajakdagi ta'lim va shaxsiy rivojlanish uchun mustahkam poydevor yaratadi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.**

1. Venger L.A., Dyachenko O.M. "Maktabgacha yoshdagi bolalarda aqliy qobiliyatlarini rivojlantirish uchun o'yinlar va mashqlar"
2. Tunik E.E. "Ijodiy fikrlash diognostikasi" (2006)
3. Выготский Л.С. Избранные психологические исследования. – Москва, 2010. – С. 148
4. Z.Alimova G. "Bolalar psixologiyasiva uni o'qitish metodikasi" T:2006y
5. Davletshin M.G. "Umumiy Psixologiya". T: TDPU,2002.

